

Avtomobil yonilg'isi savdolarini amalga oshirish faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida axborotlar, shuningdek litsenziya olish uchun arizalar qabul qilishni tashkil etish.

["Avtomobil yonilg'isi savdolarini amalga oshirish faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida axborotlar, shuningdek litsenziya olish uchun arizalar qabul qilishni tashkil etish" xizmati REGLAMENTI \(pdf 332 Kb\).](#)

Neft mahsulotlarini avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlari orqali sotish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining komissiyalari tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 28 iyundagi № 289 - sonli "Neft mahsulotlarini avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlari orqali sotish bo'yicha faoliyatni litsenziyalash to'g'risida" qarori asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar:


Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori "O'zdavneftgazinspeksiya" hududiy bo'limiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1. yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bankdagi hisob raqami, faoliyatning (yoxud uning bir qismining) litsenziyalanadigan turi ko'rsatilgan holda litsenziya berish to'g'risidagi ariza;
2. yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi;
3. litsenziya berish to'g'risidagi arizaning litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat; g) faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish uchun foydalaniladigan standartlar, normalar va qoidalarga muvofiq keluvchi binolar, inshootlar, muhandislik kommunikatsiyalari va texnologik asbob-uskunalariga egalik huquqining yoki boshqa aшыoviy huquqning mavjudligini tasdiqlovchi hujjat;
4. "O'zdavneftgazinspeksiya" hududiy bo'limining avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari va moy almashtirish punktlarining neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, hisobga olish va sotish uchun asbob-uskunalar bilan ta'minlanganligi holati, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning maxsus ma'lumotga egaligi to'g'risidagi xulosasi;
5. O'zbekiston Respublikasi "Sanoatkontekstnazorat" davlat inspeksiyasi bo'linmasining avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasi va moy almashtirish punktining neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va sotishda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligiga oid qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi;
6. yong'in nazorati hududiy organlarining avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasi va moy almashtirish punktining yong'indan saqlash talablariga muvofiqlik to'g'risidagi xulosasi; z) "O'zstandart" agentligining hududiy standartlashtirish va metrologiya boshqarmalari tomonidan beriladigan metrologik ta'minot to'g'risidagi xulosa;
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bo'linmasining avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchasi va moy almashtirish punktining tabiatni muhofaza qilish va ekologiya talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi.

Электрон мурожаат юбориш

Ko'rib chiqildi:



- 
- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)